

POETIC ARTS: IN ALL PERIODS

Yusupova Lunfiya

Kashkadarya Province Shakhrisabiz District 44-General secondary school

Ona is a high-class teacher of language and literature

Abstract: This article talks about the origin, first sources and rich development of Shari arts in the past centuries and becoming an integral part of literature in the Middle Ages.

Historically, shari'i arts appeared in Arabic literature, but it is said that they found a high artistic gloss in Eastern shari'a, Persian literature and Central Asia.

Key words: Shary arts, Ilmi aruz, Ilmi ba'de, Ilmi qafiya, Tashbeh, Talmeh, Tanasib.

Asrlar davomida shakl va mazmun jihatidan beqiyos taraqqiy etgan, jahon mumtoz adabiyoti xazinasini yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitgan Sharq she'riyati o'zining boy nazariy zaxirasiga ham ega bo'lgan. Arab, fors va o'zbek she'riyatining taraqqiyot tarixi jarayonida bir qator adabiy-tasviriy qonun-qoidalar ham shakllanib, tobora rivojlangan va boyib borgan. Chunonchi, badiiy adabiyot taraqqiyotining muayyan davrida asrlar davomida yuzaga kelgan tajribalarni umumlashtirib, badiiy asarning mohiyati va qonuniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy-nazariy asarlar paydo bo'la boshlagan. Shu tariqa badiiy adabiyotning, jumladan, she'riyatning muhim qonuniyatlarini tadqiq etib, umumlashtirib beruvchi adabiyot nazariyasi ham vujudga kelgan. Adabiyotning nazariy masalalari poetikaga doir maxsus risolalardagina emas, balki turli tazkiralarda, nomalarda, dostonlarning debochalarida va boshqa adabiy-tarixiy manbalarda katta o'rin olib kelgan. Masalan, Kaykovusning «Qobusnoma» (*XI asr: 35-bob: Shoirlik haqida*), Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chor maqola» (*XII asr*) nomli asarlarida (*2-bob: She'r haqidagi ilmning xususiyatlari va she'rning fazilatlarini haqida*) va boshqa masalalar qatorida adabiyot borasida ham alohida boblar bo'lib, u yerda badiiy ijodning umumiy masalalari, she'r va shoirlik shartlari ustida bahs boradi. Adabiyot nazariyasiga doir maxsus yaratilgan asarlarning (*gap bizgacha yetib kelganlari ustida boradi*) deyarli barchasi, asosan, poetika masalalariga bag'ishlangan. Umuman, adabiyot nazariyasi uchta mustaqil sohaga bo'lingan.

Bular quyidagilar:

1) ilmi aruz : she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yuritadi;

2) ilmi qofiya : qofiya qonuniyatlari hamda turlari to'g'risida ma'lumot beradi;

3) ilmi bade': («bade'» arabcha yangi, ajoyib, nodir demakdir) fikrni ravon va nafis ifodalash yo'llari va vositalari, badiiy san'atlar (*uslublar, vositalar*)ning turlari hamda xususiyatlari kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Ilmi bade'ni tashkil etgan she'riy san'atlar, o'z navbatida, ikki guruhga ajraladi: san'atlarning birinchi guruhi bevosita she'rning mazmuni, ma'nosi bilan bog'langan bo'lib, ma'naviy san'atlar (*sanoye'i ma'naviy*) deb ataladi. Nutqni, she'rni bezash, turli stilistik figuralar, so'z o'yinlari hosil qilish maqsadida ishlatiladigan san'atlar esa lafziy san'atlar (*sanoye'i lafziy*) deb yuritiladi.

Qadimda she'r yozmoqchi bo'lgan har bir havaskordan poetikaning ana shu uchala qismini yaxshi o'rganib chiqish talab qilingan. Tarixiy poetikaga doir bizga ma'lum asarlar turli davrlarda yaratilgan bo'lib, ular poetikaning muayyan masalalariga bag'ishlangan. Chunonchi, ularning ba'zilar tarixiy poetikaning har uchala qismini, ayrimlari faqat aruz yoki qofiya yoxud badiiy san'atlar tahliliga bag'ishlangan. Biz quyida faqat ilmi bade'ga daxldor manbalarning eng muhimlari haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Ilmi bade'ga doir dastlabki asarlar arab olimlari tomonidan yaratilgan. Nasr binni Hasanning «Mahosin ulkalom», Ibn al-Mo'tanzining (863 - 908) «Kitob ul-bade'», Quddama ibn Ja'farning (888 - 948) «Naqd ush-she'r» nomli asarlari ana shular jumlasidandir. Arab olimlarining she'r nazariyasi bo'yicha yaratgan asarlari O'rta Osiyo va Xuroson olimlarini ham shu sohada jiddiy ishlar qilishga ilhomlantirdi. Ilmi bade'ga doir dastlabki forsiy asar XI asrda yuzaga keldi. Bu Muhammad binni Umar Roduyoniy qalamiga mansub bo'lib, «Tarjimon ul-balag'a» deb ataladi. Roduyoniy o'z kitobini arab olimi Nasr binni Hasanning «Mahosin ulkalom» nomli asariga suyangan holda yaratgan va unda 73 ta san'atni keltirgan. XI-XII asrlarda Ahmad binni Muhammad Manshuri Samarqandiy talavvun san'ati haqida, (*buni Xurshedi «Kanz ul-g'aroib» deb atagan*), Abumuhammad binni Muhammad Rashididdin Samarqandiy («*Ziynatnoma*») va boshqa ijodkorlar shu ilmga doir risolalar yozganlar. Biroq XI-XII asrlarda yaratilgan ilmi bade'ga doir asarlar orasida eng mukammali Rashididdin Vatvot nomi bilan mashhur bo'lgan xorazmlik shoir va olim Rashididdin Abubakr Muhammad binni Abduljalili Umari Kotibning (*vaf. 1182-1183*) «Hadoiq us-sehr fi daqiq ush-she'r» nomli asaridir. «Hadoiq us-sehr» buyuk olim tomonidan bitilgan yuksak saviyadagi asar bo'lib, undan keyin ilmi bade' bilan mashg'ul bo'lgan barcha mualliflar ana shu asardan foydalanganlar. Rashididdin Vatvot asari hozirgi kunga qadar o'zining ilmiy qimmatini yo'qotgan emas. Tarixiy poetikaga doir yaratilgan ikkinchi bir katta

tadqiqot XIII asrning atoqli olimi Shamsiddin Muhammad binni Roziyning «Al-mo'jam fi ma'oyir-ul-ash'or-ul-Ajam» nomli mashhur asaridir. Bu asarni o'sha paytgacha poetika masalalari bo'yicha qilingan barcha ishlarning yakuni, shu sohada yaratilgan asarlarning gultoji, deb aytish mumkin. Chunki muallif bu asarida mumtoz poetikaning har uchala bo'limi — aruz, qofiya va ilmi bade' haqida mukammal ma'lumot beradi, she'r va shoirlik, badiiy asarda shakl va mazmunning munosabati, tanqidning adabiy jarayondagi roli va vazifalari haqida mulohazalar yuritadi.

Shamsi Qays asarining ilmi bade'ga doir uchinchi qismida Rashididdin Vatvotning mazkur asaridan ham foydalangan. Lekin u bu masalada ham katta iste'dod va imkoniyatlarini namoyish qilib, o'z salafi asaridagi ma'lumotlarni yanada kengaytirgan, ularni yangi izohlar bilan boyitgan, daliliy materiallarni yanada kupaytirgan va natijada ilmi bade'ni yuqori bosqichga olib chiqqan. Mashhur shoir Xusrav Dehlaviy ham nasr qoidalari haqida ikki jilddan iborat kitob yozib, unda yuzlab badiiy san'atlar haqida so'z yuritgan. Vahidi Tabriziyning «Jam'i muxtasar» (XVI asr) asarida esa aruz, qofiya bilan bir qatorda o'nlab she'riy san'atlar ham keltirilgan. Nizomiddin Ahmad ibni Muhammad Soleh Siddiqiy Husayniy qalamiga mansub «Majma' us-sanoye» asari ham butunlay ilmi bade'ga bag'ishlangan bo'lib, saksonta she'riy san'atni o'z ichiga olgan. Qabulmuhammad ham «Haft Qulzum»ning yettinchi bo'limida badiiy san'atlar ustida so'z yuritib, asosan, «Majma' us-sanoye»ga asoslanadi. XX asrga qadar yaratilgan ko'pgina lug'atlar hamda boshqa ruhdagi asarlar tarkibida u yoki bu darajada badiiy san'atlarning ayrimlari keltirilib, mulohaza yuritilgan o'rinlar uchraydi. Ilmi bade'ga doir aksariyat asarlar fors-tojik tilida yozilgan. Buning sababi shundaki, XI-XIV asrlarda o'rta osiyolik shoir va olimlar o'zlarining ilmiy asarlarini fors tilida yozar edi. XV asrga Navoiy davriga kelib, turkiy tildagi poeziyaning tajribalarini umumlashtirib, uning qonunqoidalarini nazariy jihatdan asoslab berishga zarurat paydo bo'ldi. Bu muhim vazifani amalga oshirish esa Alisher Navoiy zimmasiga tushdi. Ma'lumki, Alisher Navoiyning badiiy adabiyot haqidagi nazariy qarashlari «Mezon ul-avzon», «Mahbub ulqulub», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Majolis un-nafois», «Risolai muammo» kabi asarlarida, «Xamsa»ning kirish qismi va devonlari debochalarida bayon qilingan. Mazkur asarlar tarkibida buyuk so'z san'atkorining ba'zi bir she'riy san'atlar, poetik uslublar haqidagi yo'l-yo'lakay qaydlari ham mavjudki, ularni ko'zdan kechirish Navoiyning Yaqin va O'rta Sharq adabiyoti tarixi hamda poetikasini nihoyatda chuqur va izchil bilganligi, mumtoz poetikaning barcha unsurlarini mukammal o'rganib chiqib, o'z amaliy faoliyatida mahorat bilan qo'llaganligiga mutlaqo shubha qoldirmaydi. Bu haqda tasavvurga ega bo'lmoq uchun uning tarse' san'ati haqidagi izohini keltirish kifoya qiladi: «Tarse' san'atikim, matla'din o'zga baytda bo'la olmas, ul qasidaning (*gap Salmonning bir qasidasi ustida bormoqda – Yo.I.*) agarchi mustaxraj matlai rostdur,

ammo asli matla'da avvalgi misraning bir lafzida takalluf qilibdur va matla' budurkim, bayt:

Safoi Safvati ro'yat birext obi bahor,
Havoi jannati ko'yat bibext mushki tator.

Bu matla'g'a tatabbu' qilg'on ko'p suxanvarlar va nazmgustarlar chun muqobalada debdurlar, lat yebdurlar. Bu faqirning matlai budurkim, bayt:

Chunon vazid ba bo'ston nasimi fasli bahor,
K-az on rasid ba yoron shamimi vasli nigor.

Basorat ahli mulohaza qilsalar, bilurlarki, bu matla' tarse'ga voqe' bo'lur, aybdin muarro va murassa'g'a kelur, e'tirozdin mubarrodur. Bu nav' she'rning (*ya'ni tarse' ishlatilgan – Yo.I.*) ta'kid va mubolag'asi uchun yana bir ruboiy ham debmenki, to Xalil binni Ahmad ruboiy qoidasin va'z qilibdur, tarse' san'atida ruboiy aytilgon eshitilmaydur, balki yo'qtur va ul budurkim, ruboiy:

Ey ro'i tu kavkabi jahonoroye,
V-ey bo'i tu ailhabi ravonosoye,
B-ey mo'i tu, yorabi, chunon farsoye,
Geso'i tu chun shabi figon afzoye».

Keltirilgan parchaning diqqatga sazovor jihati shundaki, Navoiy tarse' san'ati bilan yozilgan she'r haqida fikr yuritar ekan, masalani keng miqyosda oladi va o'z mulohazalarini arab, fors va o'zbek adabiyotining ko'p asrlik tajribalariga tayangan holda bayon etadi. Bunday chuqur mulohazalar ulug' adib asarlarida ko'plab topiladi. XX asrgacha bo'lgan o'zbek adabiyoti tarixining atoqli namoyandalari merosi mumtoz poetikaning muhim muammolari, jumladan, badiiy san'atlarning o'zbek she'riyatida qo'llanish xususiyatlari va usullariga doir yirik umumlashtiruvchi asarlar yaratish uchun boy material beradi.

XIX asrshshg oxirlaridan boshlab Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ilmi bade'ga qiziqish ancha kuchayib, arab, fors-tojik va turkiy xalqlar she'riyati asosida poetik san'atlarning turlari, asosiy xususiyatlari va qo'llanish tamoyillarini izoxdovchi bir qator ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar vujudga kela boshladi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham bu sohada katta siljish bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek adabiyotining muayyan davri yoki muammolariga yoxud ayrim shoirlar ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda badiiy san'atlarning ba'zilar haqida (*tadqiq qilinayotgan asar bilan bog'liq holda*) ham fikr yuritilgan. So'nggi paytlarda ilmi bade' masalalarini maxsus o'rganish borasida ham sezilarli ishlar qilindi. Bu sohada, xususan, atoqli shoir va olim Maqsud Shayxzodaning tashabbusi diqqatga sazovordir. M. Shayxzoda o'zbek mumtoz adabiyotining cho'qqisi Navoiy lirikasi asosida badiiy san'atlarni o'rganib, mumtoz poetikaning bu muhim sohasini yaxlit holda ishlab chiqish va bu haqda mukammal asar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Aruz, qofiya va badiiy

san'atlar (*ilmi bade'*) ni bilish faqat tadqiqotchilar uchun emas, balki shoirlar va barcha she'riyat muxlislariga ham zarurdir.

Ma'lumki, Sharq poetikasiga doir asarlarda nasr va nazmda qo'llaniladigan badiiy san'atlardan 120 dan ortiq (tarmoqlari bilan yuz ellikdan oshadi) haqida ma'lumot berilgan.

Ana shu san'atlar mohiyat e'tibori bilan uch guruhga bo'linadi:

1. Lafziy san'atlar.
2. Ma'naviy san'atlar.
3. Munggarak (*ya'ni har ikkisinin xususiyati mavjud bo'lgan*) san'atlar.

Mazkur guruhlariga mansub san'atlar badiiy tasvirda turli vazifani ado etib, xilma-xil uslubiy aspektni tashkil etadi. Agar jiddiy e'tibor berilsa, tasvir jarayonida turli guruhga (*ma'naviy, lafziy, mushtarak*) mansub bir qator san'atlar o'rtasida vazifa, tabiat yoxud ba'zi bir stilistik qirralar jihatidan yaqinlik vujudga kelishi yaqqol seziladi. Mohiyat jihatidan turlicha bo'lgan bir qator san'atlar kontekstdagi uslubiy xususiyatlariga ko'ra bir-biriga yaqin kelishi mumkin. Shuningdek, u yoki bu san'atning paydo bo'lishi o'z-o'zicha bo'lmay, boshqa birorta san'atning ishtiroki bilan amalga oshadi. Lekin bunday o'rinlarda matnning asosiy pafosi va muallifning maqsadi nuqtai nazaridan yetakchi san'at birinchi o'rinda ko'rsatiladi. Biz asosiy san'atlarni, she'riy matn doirasidagi vazifasi bilan bog'liq xususiyatini nazarda tutgan holda, bir necha guruhga ajratishni lozim topdik (*bu, albatta, ma'lum darajada shartli*):

1. Istioraviy-ramziy tasvir usullari (*majoz, istiora, kinoya, baroati istihlol, ranglar ramzi kabi*).
2. Qiyosiy-assotsiativ usullar (*tashbih, talmeh, tansiq us-sifot, tamsil ko'rinishlari, laffu nashr, murooti nazir kabi*).
3. Fikrni dalillash (*motivirovka*) yo'llari (*husni ta'lil, tamsil, irsoli masal, tasdir kabi*).
4. Emotsional-mubolag'ali tasvir usullari (*mubolag'a [tablig', shroq, g'uluv], tashbihning ayrim turlari [ma'kus, izmor], ruju', murojaat, savolu javob, ritorik so'roq*).

Sintaktik-stilistik usullar (*tarse', tardi aks, radd ul-ajz ilas-sadr, tashobeh ul-atrof, murabba', mudavvar, muzdavaj, mumosila, tashtir, tajziya, tasre', tazmin, tasme', tardid, takror, radd ul-matla', tajdidi matla' kabi*).

5. a) so'zning ichki, tashqi formasi bilan aloqador san'atlar (*tajnis, ihom, ittifoq, ishtiqoq, qalb, mutazalzil kabi*); b) ayrim so'z emas, umuman tugal matn (*misra, bayt*) bilan aloqador stilistik usullar (*tavjeh, ta'kid ul-madh bimo yashbah uz-zam, idmoj, ta'liq, tajohili orif, hazl unmuurodu bihil-jidd kabi*).

6. Kontrast (*tazod, qarshilantirish*) san'ati.

7. Murakkab san'atlar (*muammo, ta'rix, hijoi huruf, harflar bilan bog'liq usullar*).

8. Stilistik mutanosiblik (*jam, tafriq, taqsim, jamu tafriq, jamu taqsim va boshqalar*).

9. Qofiya bilan aloqador san'atlar (*e'not, iyto [radd ul-qofiya], hojib, tajnisli qofiya, zulqofiyatayn, musajja', tasmit kabi*). Shuningdek, tarse', tashtir, tajziya, tasre' kabi stilistik usullar qam bevosita qofiya bilan aloqador.

Sheriy san'atlar: Tashbeh, Talmeh, Tanosib San'at - "sun", ya'ni "yaratmoq" so'zidan olingan bo'lib, badiiylik yaratish demakdir. Badiiylik yaratishning yo'llari ko'p. Badiiy san'atlar asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishini, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishini, misralar, bayt va bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliqi, jozibadorligini ta'minlovchi vositalardir.

Tashbeh sanati. Tashbeh – Sharq adabiyotida keng tarqalgan sanatlardan biri bolib, oxshatish manosi ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular ortasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga kora oxshatish sanatidir. Tashbeh sanati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani oquvchi ko'z ongida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari manaviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir goyasini oquvchi ongiga tolaroq yetkazishga imkon beradi.

Tashbeh sanati qismlari Tashbeh sanati quyidagi tort juzv asosida yuzaga keladi: 1. Mushabbah – nima oxshatilgan bolsa, osha narsa yoki tushuncha. 2. Vajhi shibh – oxshatish sababi. 3. Vositai tashbeh (odoti shibh) – oxshatish vositasi.

Talmeh sanati Talmeh arabcha so'z bo'lib, ma'nosi chaqmoq chaqilishi, bir nazar tashlash demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir.

Talmeh sanati asarlari Solib borma meni, ey Yusufi husn, Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda. Bu yerdagi talmeh Yusuf va Zulayxo turkumidagi dostonlardan xabardor bo'lishni taqozo etadi.

Tanosib sanati Tanosib - she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Aslida, ko'plab badiiy san'atlar so'zlarning she'riyatdagi ma'naviy aloqadorligiga tayanadi. Shoirning mantiqan bir-biriga bog'liq va bir-birini taqozo etadigan so'zlardan foydalanishi tanosib deyiladi. Masalan, bir baytda gul so'zi ishtirok etsa, u o'z-o'zidan tikan, guliston, shabnam, bulbul kabi so'zlarning bo'lishini taqozo etadi.

Tanosib sanati asarlari Chaqilg'och barqi ishq jovidoniy, Yetishgach bir sharar kul aylar oni. Barq (chaqmoq), sharar (uchqun), kul bir-biriga bog'liq, biri ikkinchisini taqozo qiluvchi tushunchalar. Undan oldindi baytda harorat, xas, o't so'zlari kelgan edi. Ya'ni majoziy ishq oshiqni g'amga soladi, ishq harorati uning

tanini qovjiratib xashakka aylantiradi. Shunda ilohiy ishq chaqmog‘i chaqiladi-yu, undan tushgan uchqun oshiq tanini yondirib, kul qiladi. Bu yerdagi ma‘nodosh so‘zlar o‘zining ichki tartibiga ham ega.

FOYDALANILGAN ADABIOTLAR :

1. Kaykovusning «Qobusnoma» (*XI asr: 35-bob: Shoirlik haqida*),
2. Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chor maqola» (*XII asr*) nomli asarlari.
3. Nasr binni Hasanning «Mahosin ulkalom» asari.
4. Al-Mo‘tanzining (863 - 908) «Kitob ul-bade’»,
5. Quddama ibn Ja‘farning (888 - 948) «Naqd ush-she’r» nomli asarlari.
6. Rashididdin Abubakr Muhammad binni Abduljalili Umari Kotibning (*vaf. 1182-1183*) «Hadoiq us-sehr fi daqiq ush-she’r» nomli asari.
7. Sulaymonbekning “Maboni ul-insho” asari.
8. Seyit Kemal Karaalyuo‘g‘luning “Turkcha adabiyot so‘zligi”, (Istambul, 1962 yil) asari
9. Ogoh Sirri Levendning “Devon adabiyoti. Kalimalar va ramzlar, mazmunlar va mafhumlar” asari
10. Nizomiddin Ahmad ibni Muhammad Soleh Siddiqiy Husayniy qalamiga mansub «Majma’ us-sanoye» asari.